

O‘ZBEKISTONNING TURKIY TILLI DAVLATLAR BILAN IQTISODIY MUNOSABATLARI (Ozarboyjon Respublikasi misolida, 1991 – 2019-y.)

Mamatov Behruz Salimboy o‘g‘li

Toshkent davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21898424>

Mustaqillikni qo‘lga kiritgan Ozarboyjon va O‘zbekiston o‘rtasidagi siyosiy va iqtisodiy hamkorlik I.Karimovning 1996-yil 26 – 27-maydagi Bokuga tashrifi hamda H.Aliyevning 1997-yil 18 – 19-iyunda Toshkentga tashriflari davomida yanada mustahkamlandi.

Xususan, 1996-yilgi uchrashuv davomida o‘nlab iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risida kelishuvlarga erishildi [1]. 1997-yilda Ozarboyjon rahbarining O‘zbekistonda bo‘lishi davomida iqtisodiyotning turli sohalarida hamkorlikni kengaytirishga kelishildi. Uchrashuvda so‘zga chiqqan H.Aliyev har ikkala mamlakat iqtisodiyoti ko‘plab umumiy tutash nuqtalarga ega ekani haqida gapirar ekan, bu sohada hamkorlikni faollashtirish zarurati tug‘ilganligini qayd etadi. Jumladan, paxtachilik, uzum, choy va tamaki yetishtirishda, metallurgiya, neft va kimyo sanoati sohalarida yangi qo‘shma loyihalar ishlab chiqish borasida I.Karimov aytgan takliflarni to‘la qo‘llab-quvvatlashini ma‘lum qildi [2].

O‘zbekiston va Ozarboyjon bilan iqtisodiy aloqalarning muhim bo‘g‘ini transport kommunikatsiyasi hisoblangan. 1997-yilning 5 oyi davomida Kavkazorti yo‘lagi bo‘yicha tashib o‘tilgan mahsulot hajmi 1996-yilgi umumiy ko‘rsatkichdan besh barobar ortiq natijani qayd etdi. 1997-yildagi uchrashuvda I.Karimov Ozarboyjon bilan keyingi yillarda iqtisodiy hamkorlik ko‘lamini yanada kengaytirishdan maqsad – O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston o‘rtasidagi yagona iqtisodiy makon doirasida amalga oshirilayotgan va rejalashtirilayotgan neft-gaz quvurlarini o‘tkazish, transport aloqasi tarmoqlarini barpo etishdakilashilgan holda siyosat yuritishdan iborat ekanligini ma‘lum qildi [3].

1997-yil yakuniga ko‘ra, Farg‘ona viloyati va Ozarboyjon Respublikasi o‘rtasidagi savdo aylanmasi 7,7 ming dollar (jumladan mahsulot eksporti 7,7 ming dollar)ni tashkil qilgan bo‘lsa, 1998-yilning yanvar-aprel ushbu davlatga 24,0 ming dollarlik mahsulot eksport qilindi [4]. Farg‘ona viloyatidagi neft-kimyo sanoati korxonalari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish har ikkala tomon uchun manfaatli hisoblangan.

“O‘zkiyosanoat” – O‘zbekiston kimyo sanoati korxonalari uyushmasining 1998-yil 4-aprelda Respublika Makroiqtisodiyot va statistika vaziri Sh.G‘ofurov nomiga Ozarboyjon bilan iqtisodiy hamkorlik aloqalari to‘g‘risida rus tilida ma‘lum qilgan axborot xatida keltirilishicha, “Navoiyazot” ishlab chiqarish birlashmasi 1998-yilda Ozarboyjondan diizopropil efiri va suyuq xlor yetkazib berish bo‘yicha “Sintezkauchuk” zavodi va “Ximprom” ishlab chiqarish birlashmasi (Sumgaitda joylashgan) bilan shartnomalar imzolagan. Sumgait trikotaj fabrikasi uchun O‘zbekistondan Ozarboyjonga nitron tolasini yetkazib berish ham rejalashtirilgan. “Jizzakh Plastmassa” korxonasi Sumgaitdagi Etilen-polietilen ishlab chiqarish birlashmasi bilan poliolefin quvurlari ishlab chiqarish bo‘yicha qo‘shma korxona tashkil etish imkoniyatlarini o‘rganadi [5]. Shuningdek, axborot xatida O‘zbekiston va Ozarboyjondagi tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida mavjud biznes aloqalarini saqlab qolish va o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun ularga tegishli yordam ko‘rsatish va import qilingan xom ashyo va materiallar uchun sheriklar bilan hisob-kitoblar uchun mablag‘larni kerakli miqdorda konvertatsiya qilishga imkon berish taklifi berildi.

Ozarboyjon va O'zbekiston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik dastlabki davrda MDH doirasidan tashqarida faoliyat yurutuvchi GUO'AM¹ tashkiloti bilan ham yo'lga qo'yilgan. Ushbu tashkilot 1997-yil 10-oktabrda Strasburgda bo'lib o'tgan Yevropa Kengashining Ikkinchi Sammiti davomida tashkil etilgan [6]. 1999-yilning 24-aprelida Vashingtonda o'tkazilgan forumda O'zbekiston bu tashkilotga qo'shildi [7]. AQShga amalga oshirilgan diplomatik safar davomida I.Karimov Gruziya, Ukraina, Ozarboyjon, Moldova davlatlari rahbarlari bilan uchrashuv olib bordi hamda ushbu davlatlar tashabbusi bilan tuzilgan GUAM doirasidagi savdo, kommunikatsiya va boshqa sohalardagi hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun tashkilot a'zolariga safiga qo'shilishini ma'lum qildi [8]. Biroq 2002-yildan boshlab O'zbekiston GUO'AMdan chiqib ketishini ma'lum qiladi hamda tuzilma sammit va uchrashuvlarida ishtirok etishdan bosh tortadi. 2005-yilning may oyida O'zbekiston tashkilot a'zolidan to'liq chiqib ketadi [9]. Bunga I.Karimovning geosiyosiy pozitsiyasi ta'siri sabab bo'lgan edi. Keyingi yillarda GUAM doirasida Yevropa mintaqasi bilan erkin savdo va transport yo'laklarini kengaytirish masalalari uchun qator bitim shartnomalar imzolanganiga qaramasdan, hamkorliklar ancha sustlashib bordi.

O'zbekiston turkiy dunyo birligining ajralmas qismi sifatida turkiy tilli davlatlar bilan munosabatlarni rivojlantirishga ma'lum darajada I.Karimov prezidentligi davrida ham katta ahamiyat berib keldi. Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq Toshkent “Turkiston – umumiy uyimiz” tashabbusini ilgari surgan va bu tashabbus Ozarboyjon hamda butun turkiy tilli jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlangan edi [10]. 2004-yilning 23 – 24-mart sanalarida I.Aliyevning O'zbekistonga qilgan diplomatik tashrifi davomida ikki mamlakat strategik hamkorlikning istiqbollari yanada mustahkamlashga qaratilgan Deklaratsiyani imzolashga erishildi [11].

O'zbekiston – Ozarboyjon hamkorligini rivojlantirish uchun, Poti va Mersin portlari orqali, Yevropaga chiqish imkoniyatini beradigan, Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz o'rtasidagi transport yo'laklari istiqbolli hisoblanadi. O'zbekiston, Turkmaniston, Ozarboyjon va Gruziya temir yo'llarini Turkiya tarmog'i bilan bog'laydigan, Mersin porti orqali O'rta Yer dengiziga chiqishni ta'minlaydigan “Navoiy – Turkmanboshi – Boku – Tbilisi – Kars” temir yo'l koridori alohida ahamiyatga ega. 2017-yil 30-oktyabr kuni Boku xalqaro dengiz savdo portida bo'lib o'tgan “Boku – Tbilisi – Kars” temir yo'lining tantanali ochilishi ushbu sohada ko'p qirrali O'zbekiston-Ozarboyjon munosabatlarini rivojlantirishning muhim bosqichi bo'ldi [12].

2019-yil fevral oyida Ozarboyjon delegatsiyasi O'zbekistondagi “Bakan Tex” to'qimachilik fabrikasi, “Artel” elektronika ishlab chiqaruvchisi, “O'zbekipaksanoat” ipakchilik uyushmasi va qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqaruvchi “O'zagrotexsanoatholding” korxonalariga tashrif buyurdi. Bundan tashqari, delegatsiya vakillarining vazirlar darajasida savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha muloqoti bo'lib o'tdi. Shuningdek, Investitsiyaviy hamkorlikda muayyan yutuqlarga erishildi. Bugungi kunga kelib O'zbekistonda ozarboyjonlik investorlar ishtirokida 70 dan ortiq qo'shma korxonalar faoliyat yuritmoqda [11]. Ushbu korxonalar energetika, oziq-ovqat va yengil sanoat, mashinasozlik, metall ishlab chiqarish, moliya, fan va ta'lim, qurilish va savdo sohaslariga ixtisoslashgan. Mamlakatning keng transport salohiyati asosida qulay infratuzilma rivojlantirildi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston mustaqillikka erishgan davrdan boshlaboq turkiy dunyo birligi tashabbuskorlari bo'lgan Turkiya va Ozarboyjon hamda Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro manfaatli tashqi iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish dasturini amalga oshirib kelmoqda. 1991 – 2019-yillar oralig'ida, ya'ni O'zbekiston Turkiy tilli davlatlar hamkorlik

¹ Demokratiya va iqtisodiy rivojlanish tashkiloti - GUAM: Ozarbayjon Respublikasi, Gruziya, Moldova Respublikasi va Ukrainani o'z ichiga olgan xalqaro mintaqaviy tashkilotdir. O'zbekiston a'zo bo'lgan davrda (1999 – 2005-yillarda) GUO'AM deb yuritilgan.

kengashiga a'zo bo'lib kirguniga qadar va undan keyingi bosqichlarda ham Ozarboyjon bilan har tomonlama samara olib keluvchi iqtisodiy hamkorlikni hayotga tadbqiq etib, joriy qilishga erisha oldi. Shu tariqa O'zbekistonda yaratilgan erkin bozor tamoyillariga asoslangan qulay iqtisodiy va investitsion muhit, sharoit hamda imkoniyatlar tashqi savdo, logistika, transport va boshqa sohalarning yanada taraqqiy etishiga imkoniyat yaratdi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Визит в Азербайджан проходит плодотворно // Газета «Правда востока». №102. 28 мая 1996 г.
2. Ўзбекистон ва Озарбойжон ишончли ҳамкорлар // “Халқ сўзи” газетаси. №131. 1997 йил 19 июн.
3. Газета “Правда востока”. №111. 19 июня 1997 г.
4. О'зМА. 115-jamg'arma, 1-ro'uxat, 16-yig'majild, 67-varaq.
5. О'зМА. 115-jamg'arma, 1-ro'uxat, 16-yig'majild, 32-varaq.
6. GUAM: history and institutional formation / <https://guam-organization.org/guam-history-and-institutional-formation>. Murojaat qilingan sana: 08.04.2026.
7. Адигезалов А. Сотрудничество Узбекистана и Азербайджана в рамках ГУУАМ // FarDU ilmiy xabarlar jurnali. 2024. №1. С. 224 – 230.
8. Встречи Президента в Вашингтоне // Газета “Правда востока”. №80. 27 апреля 1999 г.
9. Шестаков Е. ГУУАМ потеряло букву // “Российская газета”. Выпуск №3764. 6 мая 2005 г.
10. Adigezalov A.N. O'zbekiston Respublikasining Ozarboyjon Respublikasi bilan mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar faoliyatidagi hamkorligi: Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025. 30-bet.
11. Тагиева М.И. Взаимоотношения между Азербайджанской Республикой и Республикой Узбекистан // Наука и реальность. Science and reality. 2026. № 1(25). – С. 212 – 219.
12. Adigezalov A.N. O'zbekiston Respublikasining Ozarboyjon Respublikasi bilan mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar faoliyatidagi hamkorligi: Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025. 23-24-betlar.